



**BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINING O'ZARO
INTEGRATSIYASI**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi*

Abdullayeva Durdona Shaxzod qizi

E-mail: murodovulashbek@gmail.com

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlangich talim nazariyasi kafedrası*

Assistent o'qituvchisi

Umarova Dilafruz Anvarovna

E-mail: umarovadilaftuz@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim fanlarini o'zaro integratsiya qilish haqida so'z borgan. Matematika fanlarning eng a'losi ekanligi va barcha fanlar shu fan orqali bog'lana olishi haqida urg'u berilgan. Bundan tashqari fanlar integratsiyasi orqali o'quvchilarning nutqini o'ziga bolgan ishonchi, mustaqil fikrlashi haqida ham so'z borgan. Shuningdek, integratsiyaning afzalliklari va kamchiliklari borasida ham fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar : *integratsiya, fanlararo, bog'liq, matematika, mavzu, bilim, mustaqil fikr*

Abstract: *This article discusses the integration of auxiliary educational subjects. The emphasis is on the best subject of mathematics and the fact that all subjects can be connected through this subject. In addition, it is also discussed about the development of students' self-confidence and independent thinking through the integration of subjects. Integration, integration and its problems are also discussed.*

Keywords: *integration, interdisciplinary, related, mathematics, subject, knowledge, independent thought*

Аннотация: *В статье рассматривается интеграция вспомогательных учебных дисциплин. Основное внимание уделяется высшему уровню математики*



и тому, как все науки могут быть связаны через него. Кроме того, он рассказал о важности формирования у студентов уверенности в себе и самостоятельного мышления посредством интеграции предметов. Также обсуждаются интеграция, интеграция и ее проблемы.

Ключевые слова: интеграция, междисциплинарный, связанный, математика, предмет, знание, самостоятельное мышление

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchini kompleks fikrlashga, bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o'rgatishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning dunyoqarashi, tafakkuri va xarakteri shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu bosqichda fanlar o'rtasidagi aloqani to'g'ri yo'lga qo'yish – ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bu jarayonda fanlararo integratsiya muhim metodik yondashuv sifatida e'tirof etiladi.

Asosiy qism

Fanlararo integratsiya – bu o'quv jarayonida turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni yo'lga qo'yish, bir fan doirasida boshqa fanlar mazmuni bilan uyg'un holda bilim berish demakdir. Bu yondashuv o'quvchida yaxlit bilim tizimi, turli fanlarga umumiy nuqtai nazardan yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. Fanlararo integratsiyaning asosiy maqsadi ham mavjud. O'quvchining bilimini bir yo'nalishda emas, balki ko'p yo'nalishda rivojlantirish; Fanlar orasidagi tabiiy bog'liqlikni ochib berish; Bilimlarni real hayotga tatbiq etish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq. Integratsiyalashgan dars va integratsiyalashgan ta'limda qolaversa, boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalash imkoniyatlarini yaratish lozim. Boshlang'ich ta'limda quyidagi fanlar o'zaro integratsiyalashuv uchun katta salohiyatga ega: ona tili, matematika, tabiatshunoslik, texnologiya, tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya va xalq og'zaki ijodi.

1. Ona tili + Matematika

Hikoya, she'r va topishmoqlar orqali matematik tushunchalarni singdirish va raqamlar ishtirok etgan ertak va matnlar orqali sanash, taqqoslash, ifodalar bilan ishlash. Misol: "Uchta qush daraxtda edi, ikkita uchib ketdi. Nechta qoldi?" – bu savol



nafaqat matematik hisob-kitob, balki tilni to'g'ri tushunishni ham o'rgatadi.

2. Matematika + Tabiatshunoslik

Vaqt, fasllar, o'simlik o'sishi, ob-havo haqida kuzatishlar asosida grafiklar tuzish, jadval tuzish. Havo nechi gradus isishi va sovushi, og'irlik, hajm, masofa kabi o'lchov tushunchalarini tabiat hodisalari orqali o'rganish. Bundan tashqari masofani o'lchashga qadamlardan foydalanish.

3. Ona tili + Tabiatshunoslik

Tabiat hodisalari haqida matnlar o'qish, ularni tahlil qilish va yozma ifodalash. "Ona tabiat" mavzusi yuzasidan matn o'qish va matn mavzusini izohlash. Fasllar, hayvonlar, o'simliklar hayoti haqida hikoyalar tuzish.

4. Texnologiya + Matematika

Geometrik shakllardan foydalanib buyumlar yasash. Kartondan geometrik shakllar uchburchak to'rtburchak chizib qirqib olib va uni o'quvchilarga ko'rsatish orqali shakllar farqini ham o'rganish. O'lchash, taqqoslash, andoza bo'yicha ishlash.

5. Musiqa + Matematika

Ritm, takt, metronom asosida sanash, vaqtni his qilish.

Ritmik sanash bilan ko'paytirish jadvalini mustahkamlash.

6. Jismoniy tarbiya + Matematika

Masofa, vaqt, tezlik haqida mashqlar. Guruhlash, juftlikda ishlash, harakatli o'yinlarda sanash kabi mashqlarni qilish o'quvchilar bilimi yaxshi rivojlanadi. Ko'rinib turganidek barcha fanlar bilan bir biriga bog'laydigan bu matematika fanidan. Shuning uchun ham bu fan aniq fan hisoblanadi. O'z o'zidan integratsiyalashgan darslarning afzalliklari nimada degan savol vujudga keladi. Integratsiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat.

1. Yaxlit dunyoqarash – fanlar o'rtasidagi bog'liqlik orqali o'quvchi hayotni yaxlit tushunadi. O'ziga bolgan ishonchini tobora ortib boradi.

2. Qiziqish ortadi – fanlar o'zaro bog'langanda o'quvchilar darsga qiziqib qatnashadilar.

3. Ijodkorlik rivojlanadi – fanlararo aloqalar ijodiy yondashuvni talab qiladi.



4. Ko'nikmalar mustahkamlanadi – bir nechta yo'nalishda bilimlar takroran mustahkamlanadi.

Xulosa

Boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalash — bu o'qitishning yangi darajasi bo'lib, o'quvchini faqat faktlarni yodlash emas, balki fikrlash, tahlil qilish, muammoni yechish va hayotiy bilimlarni qo'llashga o'rgatadi. Bunday yondashuv zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladi va ularning ijtimoiy, madaniy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar uchun bu – doimiy izlanish, ijodiy yondashuv va didaktik mahoratni talab qiluvchi yo'ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TE Umarova,
2. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
3. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA IJTIMOY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
4. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49
5. R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya integratsiya" Toshkent "Voriz-nashriyot" 2013.